


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

N^o386



SIYOSIY GEOGRAFIYA
FANINING

ISHCHI O'QUV DASTURI
(2-kurs talabalari uchun)

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	140000 – Tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5140600 – Geografiya

Ma'ruza-22 soat
Amaliy mashg'ulot-30 soat
Mustaqil ta'lim-60 soat

Samarqand- 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi namunaviy o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Ibragimov L.Z. – SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasini dotsenti.
Usmanov M.R. – SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasini dotsenti.


Taqrizchilar:

Alibekov L. A. - Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasini professori, g.f.d.

Jumaboev T.J. – Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasini dotsenti, g.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasini 2019 yil ___
dagi №__ son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashiga muhokama qilish
uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



Kadirov M.A

Fanning ishchi o'quv dasturi Geografiya va ekologiya fakulteti Kengashida muhokama etilgan
va foydalanishga tavsiya kilingan (2019 yil ___ avgustdagi №__ - sonli bayonnoma)

Fakultet uslubiy kengashi raisi:

dots. T.J.Jumaboev


Fakultet dekani:

dots.L.Z.Ibragimov

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

dots.B.Aliqulov



Kirish

Siyosiy geografiya ijtimoiy geografik fan sifatida geografiya yoʻnalishi talabalariga jamiyatning siyosiy hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini oʻrgatadi. U ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlari bilan bir qatorda, geosiyosat, siyosatshunoslik, mamalakatshunoslik va boshqa fan tarmoqlari bilan uzviy aloqador. Siyosiy geografiya zamonaviy oliy taʼlim tizimida yuqori malakali geograf mutaxassislar tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Oʻquv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni oʻqitishdan maqsad – talabalarda jamiyatning siyosiy hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlari, dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning geografik jihatlariga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi talabalarni:

- siyosiy geografiyaning ilmiy-nazariy asoslari, jamiyatni siyosiy-hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlari bilan tanishtirish;
- insoniyatni siyosiy-geografik rivojlanish tarixini oʻrgatish;
- dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari, geosiyosiy jarayonlar bilan tanishtirish, ularni tahlil qilish va bashoratlash boʻyicha asosli daliliy fikr – mulohazalar bildirish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar va ularning tadrijiy oʻzgarishlari, geografik jihatlarini oʻrgatishdan iborat.

Fan boʻyicha talabalarning bilimiga, koʻnikma va malakasiga qoʻyiladigan talablar

«Siyosiy geografiya» fanini oʻzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar:

- dunyo siyosiy xaritasi, hududiy siyosiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini *bilishi kerak*;
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va bajarishga doir *koʻnikmalarga ega boʻlishi* kerak;
- turlicha hududiy siyosiy tizimlar va ularning elementlarini tadqiq qilishda ilmiy tadqiqot usullarini qoʻllay bilish va xulosalar olish *malakalariga ega boʻlishi* kerak;

Fanning oʻquv rejadagi boshqa fanlar bilan oʻzaro bogʻliqligi

Siyosiy geografiya fani iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarkibiga kiruvchi fanlar, shuning bilan birga geosiyosat, siyosatshunoslik, tarix, geoiqtisod kabilar bilan oʻzaro bogʻliq. Talabalarning mazkur fanlardan olgan nazariy va amaliy bilim hamda koʻnikmalari siyosiy geografiya va tashqi iqtisodiy aloqalar fanini oʻrganish uchun asos boʻladi.

Fanni oʻqitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Mazkur fanni oʻqitish jarayonida taʼlimning zamonaviy usullari, pedagogik va axborot texnologiyalarini qoʻllanilishi nazarda tutilgan. Maʼruza va amaliy mashgʻulotlarda “Baxs-munozara”, “Aqliy xujum”, «Munozarali dars», “Klaster” usullaridan hamda darsliklar, oʻquv qoʻllanmalari, elektron manbalar, dissertatsiyalar, monografiyalar, xorijiy adabiyotlar va Internet maʼlumotlaridan foydalaniladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi oʻrni

Ushbu fan ilmiy-tadqiqot institutlariga, oliy, oʻrta maxsus, umumtaʼlim tizimi muassasalariga, ishlab chiqarish va boshqaruv tashkilotlariga malakali geograf mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega boʻlgan bilimlar beradi. U asosiy umumkasbiy fani hisoblanib, oliy taʼlimda yuqori malakali geograflar tayyorlash tizimining ajralmas boʻgʻinidir.

Fanni oʻqitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Oʻquv jarayoni bilan bogʻliq taʼlim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar:

yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan

foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish. "Siyosiy geografiya" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum birta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. Siyosiy geografiya fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Siyosiy geografiya va tashqi iqtisodiy aloqalar fanidan mavzular va saotlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzular nomi	Jami soat	Maruza	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ta'lim
1	Kirish. Kursning predmeti, maqsad va vazifalari. fanlar tizimida tutgan o'rni.	8	2	2	4
2	Siyosiy geografiya va geosiyosatning o'zaro bog'liqligi, Zamonaviy siyosiy – geografik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari	12	2	4	6
3	Siyosiy geografiya va geosiyosatning asosiy tushuncha va kategoriyalari.	10	2	2	6
4	Sivilizatsiyalar konsepsiyasi va siyosiy geografiya. Hozirgi zamon sivilizatsiyalari	10	2	2	6
5	Dunyo siyosiy xaritasi va uning shakllanishi	10	2	2	6
6	Mamlakatlarning davlat tuzumi va davlat qurilishi va boshqaruv shakllari	12	2	4	6
7	Ingliz-amerika klassik geosiyosati	10	2	4	4
8	Siyosiy geografiya va geosiyosatdagi zamonaviy konsepsiyalar	10	2	4	4
9	Globalizatsiya va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya	10	2	2	6
10	Hozirgi xalqaro aholi migratsiyasi va uning globalizatsiya jarayonlariga ta'siri	10	2	2	6
11	O'zbekistonning geosiyosiy salohiyati va imkoniyatlari	10	2	2	6
	Jami	114	22	30	60

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (maruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosida tushunchalar va tezislari orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DS asosida etkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak. Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamra olishi hamda qan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari etiborga olinishi tavsiya etiladi.

Maruza mashg'ulotlari

Kursning predmeti, maqsad va vazifalari. fanlar tizimida tutgan o'rni. Siyosiy geografiya kursining predmeti - talabalarda jamiyatning siyosiy-xududiy tashkil etilishi va rivojlanishi, dunyo siyosiy xaritasi va uning shakllanishi, davlatlar va geosiyosiy jarayonlar, qonuniyatlar xaqidagi bilimlarni shakllantirishdan iborat ekanligi. Siyosiy geografiya va geosiyosatni fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari. Ushbu kursni yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati. Siyosiy geografiya va geosiyosatning asosiy termin va tushunchalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3 Q1;Q2;Q3

Siyosiy geografiya va geosiyosatning o'zaro bog'liqligi. Zamonaviy siyosiy – geografik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari Siyosiy geografiya jamiyatni o'rganuvchi

ijtimoiy-geografik fanlardan biri sifatida. Siyosiy geografiyani g'arbda shakllanishi va rivojlanishi. Siyosiy geografiyaning vujudga kelishida F.Ratselning xizmatlari. Ratselning «Siyosiy geografiya» asari. Sobiq Zamonaviy siyosiy - geografik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. Elektoral (saylovlar) geografiya.

Siyosiy geografiyaning ilmiy tadqiqot ob'ekti va predmeti. Uning geosiyosat bilan o'zaro aloqadorligi. Siyosiy geografiyaning tadqiqot ob'ektiga bo'lgan turlicha qarashlar. Siyosiy geografiyaning asosiy ilmiy tadqiqot ob'ekti bevosita siyosiy-hududiy tizimlar bilan bog'liqligi. Davlat hududi, davlatni tashkil etish shakllari, davlat chegaralari, dunyo siyosiy xaritasi va uning shakllanishi jarayonlari, mintaqalar, davlatlar va ularning siyosiy-geografik tuzilishi va rivojlanishi, geosiyosiy jarayonlar, siyosiy kuchlar va markazlarning joylashuvi va boshqalar siyosiy geografiyaning muhim ilmiy tadqiqot ob'ektlari ekanligi. Klassik geosiyosiy konsepsiyalar va ularning mazmuni. Zamonaviy geosiyosiy konsepsiyalar va ularning mazmuni. Ularning ilmiy-amaliy ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, dialogik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3; Q2;Q3;Q4;

Siyosiy geografiya va geosiyosatning asosiy tushuncha va kategoriyalari. Siyosiy geografiya va geosiyosatning o'zaro aloqadorligi va tafovutlari. Ushbu masalaga turlicha yondoshuvlar. Siyosiy geografiyaning ijtimoiy-geografik fan tarmog'i, geosiyosatni esa geografiya va siyosatshunoslik qirrasida vujudga kelgan fan sifatida tushunish shakli.

Geosiyosatning ilmiy-nazariy asoslari. Geosiyosatni fan sifatida vujudga kelishi. Geosiyosatni shakllanishida geografik determinizmning ahamiyati. Asosiy geosiyosiy termin va tushunchalar. Geosiyosatning asosiy qonun, kategoriyalari va funksiyalari. Geosiyosiy konsepsiyalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, dialogik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A3 Q3;Q4;

Sivilizatsiyalar konsepsiyasi va siyosiy geografiya. Hozirgi zamon sivilizatsiyalari. Atlantizm va neoatlantizm. Mondializm. Frensis Fukuyamaning geosiyosiy qarashlari. Geograf Saul Koenning geosiyosiy qarashlari. Geosiyosiy mintaqalar. Immanuel Vallersteynning jahon tizimlari konsepsiyasi. Piter Teylorning geosiyosiy montsentrizm nazariyasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, dialogik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q1;Q2;

Dunyo siyosiy xaritasi va uning shakllanishi. Insoniyatning siyosiy-geografik tarixi. Dunyo siyosiy xaritasining mohiyati va mazmuni. Insoniyatning siyosiy-geografik tarixi va uning dunyo siyosiy xaritasida aks etishi. Dunyo siyosiy xaritasining shakllanish bosqichlari. XX asrgacha dunyo siyosiy xaritasining shakllanish bosqichlari. Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Davlatlar va ularning davlat tuzumi va sotsial-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tiplari. Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasidagi jarayonlar va ularning geosiyosiy jihatlari.

Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasidagi jarayonlar va ularning geosiyosiy jihatlari. Falastin muammosi. Afg'oniston muammosi. Afrikaning siyosiy-geografik tuzilishi. Amerikaning siyosiy kartasi. AQSHning dunyo geosiyosiy tizimlarida tutgan o'rni va roli. Avstraliya va Okeaniyaning siyosiy kartasi. Jahonning yirik siyosiy, iqtisodiy tashkilotlari. Arktika va antarktika dunyo siyosiy xaritasida. Globalizatsiya jarayonlari va uning mintaqaviy xususiyatlari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, dialogik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3; Q1;Q2

Mamlakatlarning davlat tuzumi va davlat qurilishi va boshqaruv shakli. Jahon miqyosidagi davlatlarning boshqaruv shakllari, monarx davlatlar, respublika davlatlari, federativ

davlatlar, unitar davlatlar. Jaxon mamlakatlari soni, davlat tuzimi, boshqaruv shakli, siyosiy o'rnini.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q2;Q3;

Ingliz-amerika klassik geosiyosati. Ingliz-amerika klassik geosiyosatining o'ziga xos xususiyatlari, ingliz geosiyosiy maktablari. Siyosiy geografiyada possibilizm konsepsiyasi. Alfred Tayer Mexen. Xelford Makkinder. Nikolas Spaykmen va b. Anakonnda g'oyasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;Q2;Q4.

Siyosiy geografiya va geosiyosatdagi zamonaviy konsepsiyalar. Atlantizm va neatlantizm. Mondializm. Frensis Fukuyamaning geosiyosiy qarashlari. Geograf Saul Koenning geosiyosiy qarashlari. Geosiyosiy mintaqalar. Immanuil Vallerstaynning jahon tizimlari konsepsiyasi. Piter Teylorning geosiyosiy monotsentrizm nazariyasi. MDH davlatlarida geosiyosiy g'oyalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;Q1;Q2;

Globalizatsiya va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. Globalizatsiya nima? Globalizatsiya jarayonlarini tushunishga bo'lgan turli yondoshuvlar. Globalizatsiya qanday oqibatlariga olib keladi. Globalizatsiya va mintaqalashtirish jarayonlarining o'zaro aloqadorligi. Integratsion birlashmalar va geosiyosiy manfaatlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q1;Q2;Q3;

Hozirgi xalqaro aholi migratsiyasi va uning globalizatsiya jarayonlariga ta'siri. Zamonaviy migratsiya jarayonlari, globallashuv jarayonlarining migratsiyaga ta'siri, Migratsiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi jarayonini tartibga solish. Migratsiyaning sabablari va markazdari. Xalqaro hamkorlik: bandlik imkonlari va migratsiya jarayonlari ichki va tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlari va tahlili. Ishchi kuchi migratsiyasi, emigrant, immigrant.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q2;Q3.

O'zbekistonning geosiyosiy salohiyati va imkoniyatlari. O'zbekistonning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rnini. O'zbekistonning iqtisodiy-geografik, mineral xomashyo, demografik, iqtisodiy, transport-kommunikatsiya salohiyati va ularning geosiyosiy ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q1;Q2;

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar dunyo siyosiy xaritasi va unda davlatlarning aks ettirilishi, geosiyosiy salohiyati, geosiyosiy jarayonlar tahlili, tashqi iqtisodiy aloqalar tarkibi va geografiyasi bo'yicha amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsifiya etiladigan mavzulari:

Dunyo siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish. Jahon mamlakatlarini kontr xaritaga tushirish. Dunyo mamlakatlari poytaxtlarni ko'rsatish, davlatlarning geografik o'rniga tavsif berish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q1;Q2.

Jahon mamlakatlarini davlat hududi shakliga ko'ra turlarga ajratish va baholash va jadvallar tuzish. Jahon siyosiy xaritasidagi orol, yarimorol davlatlarni o'rganish, davlatlarni uzunchoq va kompakt davlatlarga ajratish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q1;Q2;Q3.

Jahon mamlakatlarining siyosiy-hududiy tarkibi, boshqaruv shakli, davlat tuzumi bo'yicha guruhlarga ajratish hamda jadvallar tuzish. Jahon mamlakatlarining hududiy tarkibi (yirik va mitti davlatlar) bo'yicha guruhlarga ajratish va jadvallar tuzish. Davlatlarning boshqaruv shakllariga ko'ra (respublika va monarxiya) guruhlarga ajratish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q2;Q3.

Jahonning etakchi ettilik davlatlarining siyosiy-hududiy tuzilishi va geosiyosiy xolatini tahlil qilish. Iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan davlatlar, jahonning ettilik davlatlarining siyosiy o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q1;Q2;Q3.

O'zbekistonning siyosiy-hududiy tuzilishini o'rganish va baholash. Respublika hududiga siyosiy geografik baho berish, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi, mamuriy-hududiy bo'linishini o'rganish va baholash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q1;Q2..

O'zbekistonning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rnini baholash. O'zbekistonning siyosiy xaritada tutgan o'rni, O'zbekistonning siyosiy hariasini kontir xaritaga tushirish. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;Q1;Q2;Q3..

Jahonning yirik siyosiy tashkilotlari. BMTning tarkibiy tuzilishi va jahon siyosiy maydonidagi o'rni va vazifasi. NATO tashkiloti va unga a'zo davlatlar, tashkilotning maqsadi va va vazifasi. SHHT va unga a'zo davlatlar, jahon siyosiy maydonidagi o'rni va vazifasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A3;Q1;Q2..

Jahonning yirik iqtisodiy tashkilotlari. OPEK tashkiloti, Evropa Ittifoqi, MDH tashkiloti, Halqaro valyuta fondi va boshqa tashkilotlar haqida malumotlarni o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;Q1;Q3;Q4.

O'zbekistonning yaqin horij davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari. O'zbekistonning qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy aloqalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A2;A3;Q1;Q2..

O'zbekistonning uzoq horij davlatlari bilan aloqalari. O'zbekistonning uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy aloqalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3 Q1;Q2;Q3.

Ihtiyoriy olingan region va mamlakatlarning siyosiy-geografik tahlili.
O'rganilayotgan hududning umumiy geografik tavsif berish. O'rganilayotgan (region) hududning jahon siyosiy maydonidagi o'rniga geografik tavsif berish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;Q1;Q2;Q3;Q4.

Amaliyot mashg'ulotlari

№	Mavzular	Soat
1	Dunyo siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish (Osiyo davlatlari misolida)	2
1.1.	<i>Osiyo mamlakatlarini kontr xaritaga tushirish</i>	
1.2.	<i>Mamlakatlarning geografik o'rniga tavsif berish</i>	
1.3.	<i>Poytaxtlarini ko'rsatish va aytib berish</i>	
2	Dunyo siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish (Evropa davlatlari misolida)	2
2.1.	<i>Evropa mamlakatlarini kontr kartaga tushirish</i>	
2.2.	<i>Mamlakatlarning geografik o'rniga tavsif berish</i>	
2.3.	<i>Poytaxtlarini ko'rsatish va aytib berish</i>	
3	Dunyo siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish (Afrika davlatlari misolida)	2
3.1.	<i>Osiyo mamlakatlarini kontr xaritaga tushirish</i>	
3.2.	<i>Mamlakatlarning geografik o'rniga tavsif berish</i>	
3.3.	<i>Poytaxtlarini ko'rsatish va aytib berish</i>	
4	Dunyo siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish (Amerika davlatlari misolida)	2
4.1.	<i>Osiyo mamlakatlarini kontr xaritaga tushirish</i>	
4.2.	<i>Mamlakatlarning geografik o'rniga tavsif berish</i>	
4.3.	<i>Poytaxtlarini ko'rsatish va aytib berish</i>	
5	Dunyo siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish (Avstraliya va okeaniya davlatlari misolida)	2
5.1.	<i>Avstraliya va Okeaniya mamlakatlarini kontr xaritaga tushirish</i>	
5.2.	<i>Mamlakatlarning geografik o'rniga tavsif berish</i>	
5.3.	<i>Poytaxtlarini ko'rsatish va aytib berish</i>	
6	Jahon mamlakatlarini davlat hududi shakliga ko'ra turlarga ajratish va baholash va jadvallar tuzish	4
6.1.	<i>Jahon siyosiy xaritasidagi orol, yarimorol davlatlar</i>	
6.2.	<i>Jahon siyosiy xaritasidagi uzunchoq va kompakt davlatlar</i>	
6.3.	Jahon siyosiy xaritasidagi eksklav, anklav hududlar	
7	Jahon mamlakatlarining siyosiy-hududiy tarkibi, boshqaruv shakli, davlat tuzumi bo'yicha guruhlariga ajratish hamda jadvallar tuzish	4
7.1.	<i>Jahon mamlakatlarining hududiy tarkibi (yirik va mitti davlatlar) bo'yicha guruhlariga ajratish va jadvallar tuzish</i>	

7.2.	<i>Davlatlarning boshqaruv shakllariga ko'ra (respublika va monarxiya) guruhlariga ajratish</i>	
7.3.	<i>Mamlakatlarni davlat tuzumiga ko'ra (unitar va federativ) guruhlariga ajratish</i>	
8	Dunyo siyosiy xaritasidagi "Og'riqli nuqtalar" ni siyosiy-geografik jihatdan tahlil qilish va baholash	2
8.1.	<i>Isroil va Falastin muammosi</i>	
8.2.	<i>Iroq va Suriya davlatlari muammolari</i>	
8.3.	<i>Afg'oniston muammosi</i>	
8.4.	<i>Boshqa davlatlardagi siyosiy muammolar</i>	
9	Jahonning etakchi ettilik davlatlarining siyosiy-hududiy tuzilishi va geosiyosiy xolatini tahlil qilish	2
9.1.	<i>Jahonning etakchi ettilik davlatlariga geografik tavsif berish</i>	
9.1.	<i>Ettilik davlatlarini boshqaruv shakli va davlat tuzumini o'rganish</i>	
9.1.	<i>Ettilik davlatlarini jahon iqtisodiy va siyosiy maydonidagi o'rniga baho berish</i>	
10	O'zbekistonning siyosiy-hududiy tuzilishini o'rganish va baholash	2
10.1	<i>Respublika hududiga siyosiy geografik baho berish</i>	
10.2	<i>O'zbekistonning boshqaruv shakli va davlat tuzilishini o'rganish va baholash</i>	
10.3	<i>O'zbekistonning mamuriy-hududiy bo'linishini o'rganish va baholash</i>	
11	O'zbekistonning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rnini baholash	2
11.1	<i>O'zbekistonning dunyo mamlakatlari ichida tutgan o'rni</i>	
11.2	<i>O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati</i>	
11.3	<i>O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari</i>	
12	Jahonning yirik siyosiy tashkilotlari	2
12.1.	<i>BMTning tarkibiy tuzilishi va jahon siyosiy maydonidagi o'rni va vazifasi</i>	
12.2.	<i>NATO tashkiloti va unga a'zo davlatlar, tashkilotning maqsadi va va vazifasi</i>	
12.3.	<i>SHHT va unga a'zo davlatlar, jahon siyosiy maydonidagi o'rni va vazifasi</i>	
12.4.	<i>Evropada xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti</i>	
12.5.	<i>Boshqa halqaro yirik (Magate, Interpol) siyosiy tashkilotlar</i>	
13	Jahonning yirik iqtisodiy tashkilotlari	2
13.1.	<i>OPEK tashkiloti</i>	
13.2.	<i>Evropa Ittifoqi</i>	
13.3.	<i>MDH tashkiloti</i>	
13.4.	<i>Halqaro valyuta fondi</i>	
<i>jami</i>		30

Fan uchun ishchi dastur tuzish jarayonida mazkur mavzu ro'yxatidan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soat xajmiga mos xolda mavzular tanlab olinadi. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarni amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. SHuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

“Siyosiy geografiya” fani bo'yicha talabning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan. Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar echadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni echadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar echadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. SHuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi. “Siyosiy geografiya” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 15 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta'limning mazmuni va xajmi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi
1	Prezident asarlarida siyosiy-geografik (geosiyosiy) masalalarning yoritilishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1 -hafta	2
2	Tabiat va siyosatning o'zaro aloqadorligi va uni o'rganish xususiyatlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2-hafta	2
3	Geografik determinizm	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	3 -hafta	2
4	Jahonning yirik iqtisodiy, siyosiy – harbiy tashkilotlari va ularning roli	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	3 -hafta	2
5	Siyosiy geografiya va geosiyosat: o'zaro aloqadorligi va rivojlanish xususiyatlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4-hafta	4
6	Klassik geosiyosiy konsepsiyalar	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4-hafta	2
7	Dunyo siyosiy xaritasining mazmuni va shakllanishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	5-xafta	2
8	O'zbekistonning geosiyosiy holati	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	5-hafta	2
9	Markaziy Osiyoda geosiyosiy jarayonlarga ta'sir qiluvchi omillar	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	6-hafta	2

10	F.Ratseldan X.Makkindergacha bo'lgan davr geosiyosiy tahlili.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	6 -hafta	2
11	Ingliz-amerika geosiyosati.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	7 -hafta	2
12	Markaziy Osiyoda geosiyosiy jarayonlar va mintaqaviy hamkorlik	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	7-hafta	2
13	Sobiq Ittifoqning parchalanishi va dunyo siyosiy xaritasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	8 -hafta	2
14	Jahon geosiyosiy tizimlarida AQSHning tutgan o' rni va roli.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	8-hafta	2
15	Dunyo siyosiy xaritasining rivojlanish bosqichlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	9-hafta	2
16	Xartlend", "Rimlend" va boshqa geosiyosiy konsepsiyalar	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	9-xafta	2
17	Tabiyat va siyosatning o' zaro aloqadorligi va uni o' rganich xususiyatlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	10-hafta	2
18	Geogarfik determinizm.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	10-hafta	2
19	Siyosiy geografiyaning ilmiy tadqiqot ob'ektlariva tushunchalari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	11-hafta	4
20	Jahonning yirik iqtisodiy, siyosiy-harbiy tashkilotlari va ularning roli.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	11-hafta	2
21	Siyosiy geografiya va geosiyosat: o' zaro aloqalari va rivojanich hususiyatlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	12-hafta	4
22	Klassik geosiyosat va uning ahamiyati.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	13-xafta	2
23	Geosiyosiy konsepsiyalar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	14-hafta	2
24	Markaziy Osiyoda geosiyosiy jarayonlarga ta' sir qiluvchi omillar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	15-hafta	4
25	MDX davlatlari tashqi siyosati O'zbekistonning ma' muriy hududiy bo' linishi va geosiyosati	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	16-xafta	4
Jami				60

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Talabalarning "Siyosiy geografiya" fanini o'zlashtirishlari uchun adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan manbalardan, elektron darsliklar, xorijiy adabiyotlar, monografiya, dissertatsiyalar, uslubiy qo'llanmalar, ilmiy-amaliy anjumanlarlar materiallari, tarqatma materiallar, statistik to'plamlardan foydalanish tavsiya etiladi. Dars jarayonida o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga ega.

“Siyosiy geografiya” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezozi

“Siyosiy geografiya” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi. Fan bo‘yicha talabalarining bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin; oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi; yakuniy nazorat (YAN) – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “YOzma ish” shaklida o‘tkaziladi. ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o‘tkaziladi. Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o‘tkaziladi. Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi. “Siyosiy geografiya va tashqi iqtisodiy aloqalar” fani bo‘yicha talabalarining semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi: YA.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baxo	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A‘lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
71-85	YAXshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo‘lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik.

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarining o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi. Talabaning fan bo‘yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: O, bu erda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda); O‘- fan bo‘yicha lashtirish darajasi (ballarda). Fan bo‘yicha joriy va oraliq

nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi. Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi. Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

ON va YAN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YAN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi. JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'pladigan ballarning mezonlari

	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi.	15	0-7	0-8
2	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	0-5	0-5
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	0-5	0-5
	Jami ON ballari	35	0-17	0-18

Talabalar JN dan to'pladigan ballarning mezonlari

	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		maks	1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	15	0-7	0-8
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	7	0-4	0-3
3	YOzma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	0-5	0-5
	Jami JN ballari	35	0-17	0-18

Yakuniy nazorat "YOzma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "YOzma ish" variantlari asosida o'tkaziladi. Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "YOzma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

	Ko'rsatkichlar	YAN ballari	
		maks	O'zgarish oraligi
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	6	0-6
2	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	24	0-24
3	Jami	30	0-30

Yakuniy nazoratda "YOzma ish"larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat "YOzma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan. Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin. YOzma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi PF-4947 sonli farmonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks o'rganish natijalari bo'yicha yig'ma tahliliy material T-2017
2. Mirziyoev SH.M Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisi T-2016
3. Mirziyoev SH.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz T-2017
4. Mirziyoev SH.M O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisga murojaatnoma T-2018
5. Mirziyoev SH.M Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz T-2017

Asosiy adabiyotlar

1. Baxritdinov B.A, Zokirova S.A, Abdurahimova G.A, A'zam, S.E Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. -T-2008, 222-bet
2. Xo'janov B.A. Geosiyosat asoslari. T., 2002.
3. Soliev A Iqtisodiy geografiya. Tanlangan asarlar T-2013, 224-bet
4. Golubchik M.M. Politicheskaya geografiya mira. Ucheb. Posob. Smolensk, 1998.
5. Kolosov V.A. Geopolitika i politicheskaya geografiya. – M., 2002.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Soliev A.S., Mallaboev T. Iqtisodiy va sotsial geografiya kursida ayrim qonuniyatlarni o'rganish metodikasi. -T., 1995.
2. Soliev A.S., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy muammolari. -T., 1999.
3. Soliev A.S O'zbekiston geografiyasi. Darslik. T-2014, 352 bet
4. Safoev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., JIDU, 2005.
5. Panarin A.S. Globalnoe politicheskoe prognozirovanie. Uchebnik. -M, 2000. -349s. Nartov N.A. Geopolitika. M., 2000.
6. Nigmanov E Iqtisodiy geografiya (jadvallarda). O'quv qo'llanma T-2016, 301 bet Aybulatov N.A. Geoekonomika. M., 1999-428 s.
7. Mangeym D., Rich R.K. Politologiya: metody i issledovaniya. M., 1999.
8. Xorev B.S. Ocherki geoglobalistiki i geopolitiki. M., 1997.

